

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
ANDIJON QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI
“QISHLOQ XO'JALIGIDA BUXGALTERIYA
HISOBI VA AUDIT”
KAFEDRASI

OLIY TA'LIMNING

5230900-«Buxgalteriya hisobi va audit» yo'nalishi talabalari uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHINI YOZISH VA HIMOYA QILISH
BO'YICHA METODIK QO'LLANMA

ANDIJON-2016

Ushbu metodik qo'llanma institut ilmiy-metodik Kengashining «___»_____ 201_ yilda bo'lib o'tgan №___-sonli majlisida ko'rib chiqildi va chop etishga tavsiya etildi.

Ushbu metodik qo'llanmada 5230900-«Buxgalteriya hisobi va audit» yo'nalishi bo'yicha bitiruv malakaviy ishining maqsadi, unga qo'yilgan talab va vazifalar, hamda ularni bajarilishining tartibi, mavzulari va ularni himoya qilishga tayyorlash, reja tuzish, adabiyotlardan foydalanish tartibi, amaliyot o'tilgan korxonalarning amaliy faoliyatini ifodalovchi ma'lumotlarni yig'ish va boshqa zaruriy ko'rsatkichlarni to'plash, ularni qayta ishlash, tahlil qilish va hisoblash texnikalaridan foydalanish, shunindek, bitiruv malakaviy ishini himoya qilishga tayyorgarlik ko'rish kabi masalalar bo'yicha aniq ko'rsatmalar berilgan.

Metodik qo'llanma 5230900–«Buxgalteriya hisobi va audit» yo'nalishi tlabalari uchun mo'ljallangan.

Tuzuvchi: R.YUldashev Andijon qishloq xo'jalik instituti
“Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida katta o'qituvchisi

Taqrizchilar: B.Abdullaev Andijon qishloq xo'jalik instituti
“Qishloq xo'jaligida buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasida i.f.n, katta o'qituvchisi (ichki)
E.Mo'ydinov “Profi audit” auditorlik tashkiloti auditori, i.f.n, dotsent (tashqi)

© Andijon qishloq xo'jalik instituti, 2016 yil

KIRISH.

Respublikamiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardanoq, oliy ta'lim tizimini isloh qilishga alohida e'tibor qaratildi. Islohotni amalga oshirishdan oldin jahondagi rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimi har tomonlama o'rganildi va chuqur tahlil qilindi. Ularning ijobiy tomonlari qabul qilinib, mamlakatimizning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim tizimi ishlab chiqildi.

O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuniga muvofiq Oliy ma'lumot berish ikki bosqichdan iborat qilib belgilandi. Birinchi (quyi) bosqichda bakalavr yo'nalishi bo'yicha ta'lim olinadi va ikkinchi (yuqori) bosqichda magistraturada aniq mutaxassisliklar bo'yicha ta'lim beriladi. "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun va "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi"ga binoan bakalavr darajasiga da'vogarlar davlat attestatsiya xay'atiga bitiruv-malakaviy ishini himoya qiladilar. Himoyaning ijobiy natijasiga asosan, Davlat Attestatsiya xay'ati bitiruvchiga bakalavr darajasini beradi.

Mazkur metodik qo'llanmada 5230900-"Buxgalteriya hisobi va audit" ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruv malakaviy ishining maqsadi, unga qo'yilgan talab va vazifalar, hamda ularni bajarilishining tartibi, mavzulari va ularni himoya qilishga tayyorlash, reja tuzish, adabiyotlardan foydalanish tartibi, amaliyot o'tilgan korxonalarning amaliy faoliyatini ifodalovchi ma'lumotlarni yig'ish va boshqa zaruriy ko'rsatkichlarni to'plash, ularni qayta ishlash, tahlil qilish va hisoblash texnikalaridan foydalanish, shunindek, bitiruv malakaviy ishini himoya qilishga tayyorgarlik ko'rish kabi masalalar bo'yicha ko'rsatmalar berilgan.

Ushbu metodik qo'llanmani ishlab chikishda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998 yil 31-dekabrdagi 362-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtlarida bakalavrlarning bitiruv malakaviy ishini bajarishiga qo'yiladigan talablar"iga asoslangan.

Metodik qo'llanma 5230900-“Buxgalteriya hisobi va audit” ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchi kursida o'qiyotgan talabalar, bitiruv malakaviy ishining ilmiy rahbarlari va maslaxatchilariga mo'ljallangan.

1.BITIRUV MALAKAVIY ISHINING MAQSADI VA VAZIFALARI.

Bitiruv malakaviy ishini yozishning asosiy maqsadi talabalarga buxgalteriya hisobi, tahlil va audit bo'yicha olgan nazariy bilimlari darajasini mustahkamlash va ularni amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini yuzaga keltirishdir.

Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit bo'yicha yoziladigan bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

talabaning buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit bo'yicha olgan (to'plagan) bilimlarini chuqurlashtirish, ularni tartibga solish, mustahkamlash va buxgalteriya hisobining boshqa soxalari bo'yicha bilim darajasini yanada kengaytirish;

institutda o'qish jarayonida olingan nazariy bilimlarini amaliyotga qo'llashga ko'nikma hosil qilish;

korxonalarda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit fanlari bilan bog'liq muammolarning o'ziga xos xususiyatlarini tushuna bilish va ularning to'g'ri yechimini aniqlashga o'rgatish;

buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borish metodlarini o'zlashtirish;

buxgalteriya hisobi tizimini isloh qilinishi sharoitlarida mustaqil ishlashga o'rganish.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishdan maqsad korxonalarda buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va auditni tashkil qilish hamda ushbu soxalarda mavjud muammolarni aniqlash, tadqiqot olib borish, shuningdek mavjud kamchiliklarning yechimini topishga yo'naltirishdir.

2. BITIRUV MALAKAVIY ISHINING MAVZULARINI TANLASH.

Kafedrada bitiruv malakaviy ishlarining mavzulari va ularning taxminiy rejalari ishlab chiqilib, kafedra majlisida va fakultet ilmiy kengashida muhokama qilingangach, institut rektorining buyrug'i bilan tasdiqlanib, xar yili dolzarb mavzular bilan to'ldirilgan holda qayta ko'rib chiqiladi.

Talabalar bitiruv malakaviy ishlarining mavzulari bilan mutaxassislik fanlarini o'qiyotgan davrlarida, ya'ni 2-3-kurslarda tanishib chiqishlari hamda o'zlarini qiziqtirgan masala va muammolarga ko'ra mavzu tanlashlari mumkin. Bunda talaba oldingi ishlarni bajarishdagi tajribalarini, o'z ilmiy salohiyatlarini va shaxsiy imkoniyatlarini hisobga olib, mustaqil ravishda bitiruv malakaviy ishi uchun mavzu tanlaydi va reja tuzadi. Tanlangan mavzu buxgalteriya hisobi, tahlil va audit faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish muammolari bo'yicha bajarilgan ilmiy tadqiqot hamda kurs ishlarining davomiyligini ta'minlashi kerak.

Kunduzgi bo'limda tahsil olayotgan talabalar amaliyot o'tash joylariga yuborilganda, u yerda olib borilayotgan buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit masalalarini qisman o'rganishi natijasida vujudga kelgan xulosalarini inobatga olgan holda tanlangan dastlabki mavzuni o'zgartirishlari mumkin. Ammo shuni e'tiborga olmoq kerakki, rektor buyrug'i bilan biriktirilgan mavzularni o'zgartirishga ruxsat etilmaydi.

Talaba bitiruv malakaviy ishi yuzasidan mavzuni mustaqil ravishda tanlab bo'lgach, uni bajarishga ruxsat berishni so'rab, kafedra mudiri nomiga ariza yozadi. Arizada bitiruv malakaviy ishining mavzusi aniq ko'rsatiladi va tadqiqot amalga oshiriladigan, hamda amaliy materiallar to'planadigan korxonaning nomi ham aniq ifodalanadi (1-ilova).

Kafedra arizani ko'rib chiqadi va bitiruv malaka ishi mavzusini talabaga biriktirish to'g'risida qaror qabul qiladi hamda ilmiy raxbarni tayinlaydi. Kunduzgi bo'lim talabalariga bitiruv malakaviy ishi mavzusini biriktirish

bitiruv malaka ishi oldi amaliyoti boshlanishidan oldin institut rektorining buyrug'iga asosan rasmiylashtiriladi. SHundan so'ng, talaba tomonidan bitiruv malakaviy ishini bajarish yuzasidan topshiriq belgilangan talab asosida 2 nushada tuziladi va u biriktirilgan ilmiy raxbar tomonidan tasdiqlanadi. Uning bir nusxasi kafedrada, ikkinchi nusxasi esa talabada qoladi. Mazkur topshiriq bitiruv malakaviy ishini bajarish yuzasidan talabaning kelgusidagi ishlarini amalga oshirishda asos bo'lib xizmat qiladi.

3.BITIRUV MALAKAVIY ISHINING MAZMUNI.

Buxgalteriya hisobi, tahlil va audit fani bo'yicha bitiruv malakaviy ishining mazmuni uning mavzusidan kelib chiqib belgilanadi. Bitiruv malakaviy ishi 3 qismdan iborat bo'ladi, ya'ni kirish, asosiy qism, hamda xulosa, takliflar va internet ma'lumotlaridan iborat. Bitiruv malakaviy ishi rejasi ilmiy rahbar bilan birgalikda tuzilib, kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Bitiruv malakaviy ishining kirish qismida quyidagi masalalar haqida ma'lumotlar yoritilishi kerak:

-
- tanlangan mavzuning dolzarbligi va uning iqtisodiyotdagi ahamiyati;
-
- bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari;
 - tadqiqotning nazariy – metodik uslubiy asoslari;
 - ilmiy tadqiqot ob'ektiga qisqacha iqtisodiy tavsif;
-
- bitiruv malakaviy ishining tuzilishi.
-

Bitiruv malakaviy ishining asosiy qismi boblar va ularga tegishli bo'lgan paragraflardan iborat bo'ladi. Boblar va paragraflarning miqdori tanlangan mavzu mazmunidan kelib chiqib, 2 yoki 3 bobdan iborat bo'lishi mumkin. Agar tanlangan mavzu faqat buxgalteriya hisobi yoki tahlil yoki audit masalalarini yoritishga mo'ljallangan bo'lsa, u holda boblarning soni 2 ta bo'ladi. Bordini tanlangan bitiruv malakaviy ishining mavzusi o'z ichiga buxgalteriya hisobi va tahlil yoki buxgalteriya hisobi va audit masalalarini yoritishga mo'ljallangan bo'lsa, u holda boblarning soni 3 ta bo'ladi (2-ilova).

Bitiruv malakaviy ishining asosiy qismi 7-8 savoldan iborat bo'lib, 1-2 savollarda mavzuning nazariy jihatlarini o'rganilgan ilmiy hamda o'quv adabiyotlaridan olingan ma'lumotlar va bilimlar orqali shaxsiy fikrlar bilan bayon etiladi.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy qismida o'rganilayotgan mavzuning nazariy asoslari ochib beriladi, bozor munosabatlari sharoitida va iqtisodiy islohotlar sharoitida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobi, tahlil va auditni amalga oshirish hamda ularni rivojlantirish, shuningdek takomillashtirishga oid vazifalar, tanlangan mavzuning umumnazariy masalalari ko'rib chiqiladi. Bundan tashqari, bitiruv malakaviy ishining asosiy qismida, xo'jalik yurituvchi sub'ektda tanlangan mavzu bo'yicha olib borilayotgan buxgalteriya hisobi, tahlil va audit ishlarining o'ziga xos xususiyatlari, yo'l qo'yilgan kamchiliklar, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish chora-tadbirlari yoritiladi. Ishning asosiy qismi o'rganilgan mavzudagi nazariy, tashkiliy va amaliy ishlarni takomillashtirish yo'llarini yoritilishi bilan tugallanadi.

Xulosa qismida mavzu yuzasidan ko'rilgan masala va muammolarni bartaraf qilish bo'yicha berilgan takliflar va tavsiyalarga qisqacha yakun yasalib, o'rganilgan mavzu yo'nalishiga muvofiq holda buxgalteriya hisobi, tahlil va auditni tashkil etish hamda ularni takomillashtirish borasidagi aniq takliflar aks ettiriladi.

Bitiruv malakaviy ishi talaba tomonidan mustaqil ravishda shaxsiy fikrlar orqali mantiqiy jihatdan yondashgan holda xatolarsiz yozilishi lozim. Bitiruv malakaviy ishini darsliklar, o'quv qo'llanmalari, shuningdek iqtisodiy adabiyotlardan ko'chirib yozish mumkin emas.

4.BITIRUV MALAKAVIY ISHINI BAJARISHNI TASHKIL ETISH.

Bitiruv malakaviy ishining bajarish muddati o'quv rejasiga asosan belgilanadi. Bitiruv malakaviy ishini yozishdan avval bitiruv oldi amaliyoti o'tkazilib, ushbu davrda amaliyot bazasi hisoblanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlarida (tijorat banklarda, byudjet tashkilotlarda va korxona va tashkilotlarda) olib borilayotgan buxgalteriya hisobi, tahlil va audit jarayonlari o'rganilib, bitiruv malakaviy ishini bajarish uchun kerakli materiallar to'planadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy rahbari talaba bilan birgalikda bitiruv malakaviy ishi yuzasidan topshiriqlarni va ularni bajarish bo'yicha taqvimiy jadvalini ishlab chiqadi va uni o'z imzolari bilan tasdiqlaydilar. Bitiruv malakaviy ishini bajarish yuzasidan tuzilgan mazkur topshiriq kafedra mudiri tomonidan tasdiqlanib, kafedra majlisi tomonidan muhokama qilinadi, hamda ushbu masala bo'yicha tegishli qaror qabul qilinadi.

Ilmiy rahbar bilan bitiruv malakaviy ishini bajaruvchi talabaning uchrashuvi har hafta kafedrada yoki rahbarning talabani amaliyot o'tayotgan joyiga borganida (kamida bir oyda 2 marta) amalga oshiriladi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarayotgan talaba ilmiy rahbar va kafedra mudiri tasdiqlagan topshiriq va uni bajarish bo'yicha tuzilgan taqvimiy jadvalga qat'iy rioya etishi kerak.

5.ADABIYOTLARNI O'RGANISH, MA'LUMOTLARNI TO'PLASH, XULOSA VA TAKLIFLARNI ASOSLASH.

Talaba tanlangan bitiruv malakaviy ishi mavzusiga muvofiq ravishda tegishli adabiyotlarni, rasmiy va me'yoriy hujjatlarni hamda amaliy materiallarni o'rganadi. Adabiyotlarni o'rganish orqali talaba tadqiqotning nazariy asoslarini aniqlab oladi, ya'ni mavzuga dahldor bo'lgan buxgalteriya hisobi, tahlil va auditni tashkil etish, hamda ular yuzasidan asosiy

tushunchalarga, o'rganilayotgan jarayonlarning yuzaga kelganligi, shuningdek ularning rivojlanish qonuniyatlarini va ilmiy atamalar tizimini bilib olishga erishadi. Adabiy manbaalarni va o'rganilayotgan mavzuga tegishli masalalarning hozirgi ahvolini chuqur o'rganish natijasida bitiruv malakaviy ishini yozish yuzasidan kerakli xajmda ma'lumotlarga ega bo'linadiki, bu o'z navbatida oldinga qo'yilgan ishni sifatli amalga oshirilishi uchun zarur omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Talaba xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda olib boriladigan buxgalteriya hisobi, tahlil va auditni davlat tomonidan tartibga solinishi haqidagi bilimlarga esa, rasmiy va me'yoriy xujjatlarni o'rganish orqali erishishi mumkin.

Talaba bitiruv malakaviy ishini bajarishda O'zbekiston Respublikasi qonunlarini, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlarini, hamda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining asosiy qoidalarini o'rganishi lozimki, buning natijasida iqtisodiy islohatlarni amalga oshirish, bozor iqtisodiyoti sharoitidagi mavzuga taalluqli ma'lumotlar haqidagi bilimlarga ega bo'linadi.

Bitiruv malakaviy ishini sifatli hamda har tomonlama chuqur o'rganilgan holda yozilishida quyidagi jurnal va ro'znomalardagi tadqiqot olib borilayotgan mavzuga daxldor materiallarga e'tibor qaratish, ularni o'rganish hamda tahlil etish katta ahamiyat kasb etadi: "Iqtisod va ta'lim", "Bozor, pul va kredit", "O'zbekiston iqtisodiyot axborotnomasi", "Soliq to'lovchining jurnali", "Ekonomicheskoye obozreniye", "Obzor finansovogo rynka" jurnallari, "Soliq va bojxona xabarnomalari", "Kommercheskiy vestnik", "Ekonomicheskaya gazeta", "Xalq so'zi" ro'znomalari shular jumlasidandir. Mavzuni yoritishda umumdavlat statistika ma'lumotlaridan ham keng foydalanish lozim.

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi yuzasidan materiallarni to'plash maqsadida adabiy manbaalar o'rganilayotganda, ularni o'rganish natijasida olingan ma'lumotlar, vujudga kelgan fikr-muloxazalar hamda xulosalar homaki

tarzda yozib borilishi lozimki, buning natijasida ularni tuzilgan rejaga asosan tartibga solish va umumlashtirish ishlarini osonlashtirilishiga erishiladi.

O'rganilayotgan amaliyot ma'lumotlari kamida uch yillikni qamrab olgan bo'lishi lozim. Amaliyot ma'lumotlarini o'rganish va ularni to'plash bajarilayotgan bitiruv malakaviy ishi yuzasidan o'rganilayotgan masalalarning hozirgi holatini aks ettirish, ularni takomillashtirish yo'llarini hamda mavjud muammolarni bartaraf etish chora-tadbirlarini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Ba'zi hollarda zaruriyatdan kelib chiqqan tarzda kerakli ma'lumotlarni to'plash maqsadida maxsus kuzatuv ishlari ham amalga oshiriladi. Amaliyot ma'lumotlarini o'rganish natijasida olingan raqamli ma'lumotlar jadval ko'rinishda tartibga solinib, umumlashtiriladi, hamda ulardan iqtisodiy tahlillarni amalga oshirishda va xulosa, takliflarni bayon etishda keng foydalaniladi.

Bitiruv malaka ishining asosiy qismida o'rganilayotgan mavzuning nazariy asoslari, uning davlat tomonidan tartibga solinishi, hozirgi holati hamda uni yanada takomillashtirish kabi masalalar yoritilgach, so'nggi va muxim boskich, ya'ni xulosa va takliflarni asoslash ishlari amalga oshiriladi. Xulosa va takliflar bitiruv malakaviy ishining mavzusidan kelib chiqqan holda o'rganish ob'ekti bo'lib xizmat qilgan xo'jalik yurituvchi sub'ektning faoliyatida olib borilayotgan buxgalteriya hisobi, tahlil va auditni yaxshilashga va ularni yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. Ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar natijasida kelingan xulosa va ular asosida ishlab chiqilib, bayon etilayotgan takliflar Davlat attestatsiya komissiyasiga himoya qilish belgisi bo'lib hisoblanadi. Mazkur takliflar asoslangan holda aks ettirilishi va bitiruv malakaviy ishiga amaliy ma'lumotlar to'plash uchun xizmat qilgan korxona faoliyatida qo'llanishi nuqtai nazaridan kelib chiqib bayon etilishi lozim.

6.BITIRUV MALAKAVIY ISHINI RASMIYLASHTIRISH

Bitiruv malakaviy ishini belgilangan talablar darajasida rasmiylashtirilishi ma'lum bir ma'noda to'plangan materiallarning aniq va xaqqoniyligiga ham bog'liq bo'ladi. Bitiruv malakaviy ishini yozishda quyidagilarga e'tiborni qaratmoq va ularga rioya etmoq kerak bo'ladi:

ma'lumotlar aniq, xaqqoniy bo'lishi va tartibli bayon etilishi;

- ma'lumotlar bayoni mantiqiy izchil, jumla tuzilishlari tushunarli, qisqa va aniq bo'lishi;
- xulosalar isbotlangan va takliflar asoslangan holda aks ettirilishi;
- ma'lumotlarni bayon etishda mavhumlik va kaytarilishlarga yo'l qo'ymaslik;
- adabiy manbalardan, rasmiy hujjatlardan ma'lumotlarni ko'chirib yozmaslik;
- umumiy nutqda qo'llanilmaydigan so'zlar, atamalar va iboralarni qo'llamaslik.

Bitiruv malakaviy ishining muqovasi 3-ildavda ko'rsatilgan shaklda rasmiylashtiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligining 1998 yil 31-dekabr №362 sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Oliy o'quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishni bajarishga qo'yiladigan talablar" ga asosan, tushuntirish qismi malakaviy ishning mazmunini qisqa va muayyan shaklda ifodalashi kerak. Zaruriy hollarda tushuntirish qismiga grafiklar, rasmlar, eskizlar, diagrammalar, sxemalar, jadvallar va boshqa shuningdek, zaruriy qo'shimcha axborotlar ilova etilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishi 70-80 varaqdan (ilovalarsiz) iborat bo'lib, A4 (21x29) format kog'ozga, chapdan 2,5 sm, yukori, past va o'ngdan 2 sm chetlab yoziladi.

Mundarijada bitiruv malakaviy ishining tarkibiy qismlari, ya'ni kirish, boblar va ularning nomlanishi, paragraflar va ularning nomlanishi, xulosa va

takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ular bayon etilgan betlarning raqamlari aks ettirilishi lozim.

“Kirish”, “Xulosa va takliflar” bo'limlaridan tashqari barcha boblar arab sonlari bilan raqamlanadi. Boblarning tartib raqamidan so'ng nuqta (.) qo'yiladi. Boblarga tegishli paragraflar esa, mos ravishdagi bob raqamidan kelib chiqqan holda raqamlanadi. Aniqroq qilib aytganda, paragraf tartib raqami bir-biridan nuqta bilan ajralib turuvchi bobning tartib raqami hamda paragraf tartib raqamidan iborat bo'ladi, ya'ni “1.3.” - bu birinchi bobning uchinchi paragrafining tartib raqamidir. (4-ilova).

Bitiruv malakaviy ishlarining betlari ketma-ketlikka amal qilingan holda raqamlanadi. Raqam betning pastki tomoninining o'rtasiga arab soni bilan qo'yiladi. Muqova, mundarijaga tartib raqamlari qo'yilmaydi. “Kirish” bo'limining birinchi beti “3” soni bilan raqamlanadi va shu ketma-ketlikka amal kilib tartib raqami qo'yila boshlanadi. Bitiruv malakaviy ishida rasmlar va jadvallar, grafiklardan foydalanilgan bo'lsa, ular aks ettirilgan betlar ham tartib raqamlari ketma-ketligiga qo'shiladi. SHuningdek, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yozilgan betlar ham umumiy raqamlanishga qo'shiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati aks ettirilganda, kat'iy ravishda mualliflar ismi-sharifining bosh xarfini alfavit tartibi bo'yicha joylashtirishiga amal qilinishi lozim. Bunda quyidagilarga ham e'tibor qaratmoq kerak, ya'ni agar bitiruv malakaviy ishida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlaridan, hamda tegishli rasmiy xujjatlardan foydalanilgan bo'lsa, ularning ro'yxati mos ravishdagi yukoridagi ketma-ketlikda aks ettirilishi lozim. So'ngra, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati yuqorida ta'kidlanganidek, alfavit tartibiga amal qilingan tarzda yoziladi. Bitiruv malakaviy ishini bajarishda foydalanilgan jurnallar va ro'znomalar ro'yxati esa, taqvimiy ketma-ketlikka amal qilingan holda ko'rsatiladi.

Ilovalar bitiruv malakaviy ishining oxiriga tikiladi, ular ketma-ket arab raqami bilan raqamlanadi. Ilovaning yuqorisining o'ng tomoniga "Ilova" so'zi uning tartib raqami bilan birgalikda yozib qo'yilishi kerak. Masalan, "3-ilova". Bitiruv malakaviy ishini bajarishda qo'llanilgan illyustratsiyalar (chizmalar, diagrammalar, eskizlar va boshqalar) rasmlar deb nomlanadi va ular arab raqami bilan ketma-ket raqamlanadi. Keltirilgan illyustratsiyalar bitiruv malakaviy ishida ular bayon etilgan joyda yoki keyingi betda joylashtirilishi kerak.

Tadqiqotlar natijasida to'plangan raqamli ma'lumotlarni bitiruv malakaviy ishida joylashtirishda jadvallardan foydalanish mumkin va ular mazmunidan kelib chiqqan holda, nomlanadi va jadvalning tepasiga "Jadval" so'zi unga birlashtirilgan tartib raqami bilan botiq xarflar orqali saxifaning o'ng tomoniga yozilishi lozim. Masalan, "4-jadval". Jadvalning sarlavhasini ajratib yozish shart emas. Bitiruv malakaviy ishi matnida jadval haqida ma'lumot keltirilgandan keyinroq uning o'zini joylashtirish kerak. Agar jadval aks ettirilayotganda uning keyingi betga ham ko'chirilishiga to'g'ri kelib kolsa, u holda jadvalning ustunlari raqamlanadi, hamda bu raqamlanish keyingi betda ham ko'rsatilib, jadvalning davomi aks ettirilaveriladi.

Aks ettirilgan formulalar, chizma yozuvlar bilan aniq yoziladi, hamda ularning ostida qo'llanilgan belgilar hamda son darajalari tushuntirish ma'nosiga ko'ra, ularning formuladagi ketma-ketligiga amal qilingan tarzda ko'rsatiladi. Formulada qo'llanilgan xar bir belgi va son darajalarining ma'nosi yangi xat boshidan yozilishi kerak.

Ishning matnida keltirilgan ma'lumotlarning manbalari tartib raqamiga ko'ra foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida aks ettiriladi.

Bitiruv malakaviy ishi yozib tugatilgach, qayta o'qib chiqilishi lozim va bunda quyidagilarga ahamiyat qaratmoq lozim, ya'ni:

uning qismlarini o'zaro bog'lanishi hamda bayon etilish usuli (adabiy tili) ga;

xatoliklar va qaytarilishlarga yo'l qo'yilmaganligiga;
--

formulalar, raqamlar, ko'chirmalar, bibliografik yozuvlarni dastlabki manbalardan to'g'ri yozilganligiga.

Qayta o'qib chiqish natijasida qo'lyozmani to'ldirish va maromiga yetkazish zaruriyati aniqlansa, darhol bu amalga oshirilishi lozim.

Talab darajasida yozilgan bitiruv malakaviy ishining mukovasiga ilmiy raxbar, talaba, kafedra mudiri va dekan imzo qo'yadilar.

Bitiruv malakaviy ishini yozish jarayonida talaba tomonidan ishlab chiqilgan takliflarni amaliyotda qo'llanilishi talaba tomonidan e'tiborga olinmog'i kerak. Mazkur takliflarni korxona amaliyotida qo'llanilgani yoki kelgusida qo'llash uchun qabul qilinganligi haqidagi hujjat bo'lib, ushbu korxona mas'ul shaxsining imzosi va korxona muhri bilan tasdiqlangan ma'lumotnoma hisoblanadi.

7. BITIRUV MALAKAVIY ISHIGA TAQRIZ YOZISH VA HIMOYA QILISH.

Belgilangan talablar darajasida yozilgan bitiruv malakaviy ishi tegishli shaxslar tomonidan imzolanganach, kafedrada dastlabki himoyadan o'tadi va Davlat attestatsiya komissiyasi oldida himoya etish uchun ruxsat beriladi hamda bu kafedra mudirining imzosi bilan tasdiqlanadi.

Bitiruv malakaviy ishiga ilmiy raxbar va amaliyot korxonasidan raxbarlik qilgan mas'ul shaxslar taqriz yozadilar.

Bitiruv malakaviy ishi yuzasidan yozilgan taqrizda ishning ilmiy darajasi, uning tarkibiy qismlarini qay darajada bayon etilganligi, keltirilgan takliflarni asoslanganlik darajasi baholanadi, shuningdek yo'l qo'yilgan kamchiliklar qo'rsatiladi va talabaning mahorati baholanadi (7-ilova).

Bitiruv malakaviy ishini talaba tomonidan himoya qilishga tayyorgarlik ishlari quyidagilardan iborat bo'ladi:

olib borilgan tadqiqot mavzusi yuzasidan qisqacha va mazmunli matnni yozib olish;

nutqi yuzasidan kerakli bo'ladigan illyustratsiya materiallarini tayyorlash;

taqrizlar bilan tanishish va taqrizchilar e'tirozlariga javob tayyorlash;

Davlat attestatsiya komissiyasi a'zolarining berishi mumkin bo'lgan savollariga kerakli darajada tayyorgarlik ko'rish;

mavzuga taalluqli jadvallar, slaydlar tayyorlash.

Bitiruv malakaviy ishi talaba tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining ochiq majlisida himoya qilinadi. Talaba 10-15 daqiqa mobaynida bitiruv malakaviy ishining asosiy mazmuni va mohiyatini bayon etadi, xulosalarini izohlaydi, keltirgan takliflarini asoslab beradi, hamda berilgan savollarga javob beradi.

Davlat attestatsiya komissiyasi ilmiy raxbarning taqrizini e'tiborga olgan holda, himoyaning natijasini **“besh”** balli tizim asosida baholaydi.

8. BITIRUV-MALAKAVIY ISHLARINING NAMUNAVIY MAVZULARI BANKI.

I.Qishloq xo'jalik korxonalari bo'yicha (39 ta)

1. Donmahsulotlari AJda joriy aktivlar hisobi-
2. "Qishloqxo'jalik kimyo" tuman bo'limlarida aylanma mablag'lar hisobi va tahlili.
3. Fermer xo'jaliklarida resurslardan foydalanish samaradorligi taxlili.
4. PTHJda moliyaviy natijalar hisobi va tahlili.
5. PTHJda ta'sischilar bilan hisob-kitoblar hisobi.
6. Fermer xo'jaliklarida mehnat va unga xaq to'lashning hisobi.
7. Fermer xo'jaliklarida moddiy xarajatlar hisobi va auditi
8. Fermer xo'jaliklarida soliqlar va majburiy to'lovlarni hisoblash xamda soliq organlari bilan hisoblashishlarni tashkil qilish.
9. Fermer xo'jaliklarida foydaning ishlatilishi va moliyaviy natijalar hisobi.
10. Paxta tozalash HJda debitorlik-kreditorlik qarzlarini hisobga olish va uning tahlili.
11. Fermer xo'jaliklarining moliyaviy holati tahlili.
12. Fermer xo'jaliklarida byudjet va byudjetdan tashqari to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar hisobi.
13. Fermer xo'jaliklarida daromadlar va xarajatlar hisobi hamda tahlili.
14. Fermer xo'jaliklari xususiy kapitalini hisobga olish va tahlili.
15. Fermer xo'jaliklarida o'simlikchilik xarajatlarining hisobi va mahsulotlar tannarxini hisoblash.
16. Fermer xo'jaliklarida davr xarajatlari hisobi.
17. Ip-yigiruv va to'quv hissadorlik jamiyatida ishlab chiqarish uskunalaridan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarining hisobi va taxlili.
18. Fermer xo'jaliklarida ishchilar bilan hisoblashishlar hisobi.
19. Fermer xo'jaliklarida kapital qo'yilmalar hisobi.

20. Don mahsulotlari AJlarida qimmatli qog'ozlar va ularning hisobini tashkil qilish.
21. Fermer xo'jaliklarida tovar-moddiy zahiralarini sotib olish va ularni sarflanishini hisobga olish.
22. Fermer xo'jaliklarida majburiyatlarni hisobga olish va tahlili.
23. Fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish zahiralarining hisobi.
24. Fermer xo'jaliklari aylanma mablag'lar hisobi va ulardan foydalanish tahlili.
25. Fermer xo'jaliklarida xarajatlar hisobi va tahlili.
26. Fermer xo'jaliklarida byudjet bilan hisob-kitob muomalalari hisobi.
27. Fermer xo'jaliklarida boshqaruv xisobini tashkil etish va uning o'ziga xos xususiyatlari.
28. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya xujjatlarining aylanishi va ularni rasmiylashtirish tartibi.
29. Fermer xo'jaliklari uzoq muddatli aktivlar hisobi.
30. Fermer xo'jaliklarida buxgalteriya hisobotini tuzish xususiyatlari.
31. Fermer xo'jaliklarida MTP xarajatlarini hisobga olish va uning tahlili.
32. Fermer xo'jaliklarida mahsulot sotish hajmining tahlili
33. Fermer xo'jaliklarida pul mablag'lari hisobi va tahlili.
34. Fermer xo'jaliklarida qarz majburiyatlarni hisobga olish
35. Fermer xo'jaliklari tovar-moddiy zaxiralar hisobi
36. Fermer xo'jaliklarida tayyor mahsulotlar va sotish operatsiyalari hisobi.
37. Don mahsulotlari DAK xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish. (korxona misolida)
38. Paxta tozalash sanoatida mahsulot ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va ularning tannarxi kalkulyatsiyasini tashkil etish. (korxona misolida)
- 39.** Fermer xo'jaliklarida davlat buyurtmalari bo'yicha mahsulot yetishtirish va yetkazib berishning tahlili

II.Sanoat va xizmat ko'rsatish korxonalari bo'yicha (47 ta)

1. Aktsionerlik jamiyatlarida davr xarajatlari hisobi va tahlili
2. Aktsionerlik jamiyatlarida pul mablag'lari hisobi.
3. Ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda inventar va xo'jalik jihozlari hisobi.
4. Muomala xarajatlarining hisobi.
5. Qo'shma korxonalarda investitsiyalar hisobi.
6. Ma'suliyati cheklangan jamiyatlarda bajarilgan ish va ko'rsatilgan xizmatlar hisobi.
7. Aktsionerlik jamiyatlarida nomoddiy aktivlarning hisobi.
8. Xususiy korxonalarda buxgalteriya hisobini tashkil etish masalalari
9. Aktsionerlik jamiyatlarida moliyaviy faoliyat daromadlari va xarajatlari hisobi va tahlili.
- 10.Korxonalarda boshlang'ich hisob va xujjatlashtirishni tashkil etish, xamda ularni yanada takomillashtirish yo'llari
- 11.Buxgalteriya hisobining shakllari va bozor iqtisodiyoti sharoitida ularni yanada takomillashtirish yullari.
- 12.Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimi sharoitida buxgalteriya hisobini tashkil etish.
- 13.Buxgalteriya hisoboti va uning sub'ekt faoliyatini tahlil qilishdagi o'rni.
- 14.Buxgalteriya balansi va uni xo'jalik yurituvchi sub'ektni boshqarishda tutgan o'rni. (korxona misolida)
- 15.Xo'jalik yurituvchi sub'ektning asosiy vositalarini xolati, xarakatini hisobga olish va ulardan samarali foydalanish yo'llari. (korxona misolida)
- 16.Asosiy vositalarni ta'mirlash xarajatlarining hisobi.(korxona misolida)
- 17.Materiallar sarfining hisobi va auditi hamda bozor iqtisodiyoti sharoitida ulardan foydalanishning nazorati. (korxona misolida)
- 18.Investitsiya, uning moxiyati, axamiyati va hisobini yuritish. (korxona misolida)

19. Valyuta muomalalari va valyuta schyotidagi mablag'larni hisobga olish.
20. Yangi texnika, texnologiyani joriy qilish va ular asosida ishlab chiqarishni tashkil etish xarajatlarini hisobi hamda ularning samaradorligi ko'rsatkichlarining taxlili. (korxona misolida)
21. Tug'ri va egri xarajatlarning hisobi, ularni maxsulotning tannarxiga ko'shish tartibi. (korxona misolida)
22. Ishlab chiqarish ustama sarflarining tarkibi, hisobi va ularni ishlab chiqarish xarajatlariga qo'shish usullari.
23. Ishlab chiqarishdagi yo'qotishlarning hisobi va auditi hamda ularni bartaraf etish yo'llari.
24. Bozor iqtisodiyoti sharoitida tugallanmagan ishlab chiqarishning hisobi.
25. Yordamchi ishlab chiqarish sarflarining hisobi hamda maxsulot, ish va xizmatlarning tannarxini kalkulyatsiya qilish. (korxona misolida)
26. Ishlab chiqarish xarajatlarining yig'ma hisobi va uni yanada takomillashtirish yo'llari.
27. Bozor sharoitda mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar bilan hisoblashishlarning hisobini tashkil etish. (korxona misolida)
28. Buxgalteriya balansi va xo'jalik yurituvchi sub'ekt moliyaviy hisobi. (korxona misolida)
29. Qurilish-montaj ishlarida foydalanilgan materiallarning hisobi. (korxona misolida)
30. Avtotransport xizmatlari xarajatlarining hisobi va ular tannarxini kalkulyatsiyasini tashkil etish.
31. Xo'jalik yurituvchi sub'ektning foydasi, zarari, moliyaviy axvoli hisobi. (korxona misolida)
32. Bozor iqtisodiyoti sharoitida sanoatda ishlab chiqarish xarajatlarining hisobi va tannarxining kalkulyatsiyasi. (korxona misolida)

33. Aktsiyadorlar jamiyatida bozor sharoitida tayyor maxsulot chiqarish va uni sotish hisobi va auditi. (korxona misolida)
34. Bozor sharoitida moliyaviy natijalar va ularni taqsimlash hisobi va uning taxlili. (korxona misolida)
35. Qo'shma sub'ektlarda ishlab chiqarish xarajatlari hisobi va tannarx kalkulyatsiyasi. (korxona misolida)
36. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashqi iktisodiy faoliyatining hisobi va uni takomillashtirish yo'llari. (korxona misolida)
37. Hisob va kredit munosabatlarining auditi hamda uni takomillashtirish yo'llari. (korxona misolida)
38. Mehnat, unga xaq to'lash hamda mehnat xaqi jamg'armasidan foydalanish hisobi va auditini tashkil etish. (korxona misolida)
39. Ijara munosabatlari va ularning hisobini tashkil qilish. (korxona misolida)
40. Mas'uliyati cheklangan jamiyatida xarajatlar hisobi va taxlili
41. Mas'uliyati cheklangan jamiyatida asosiy vositalar hisobi va taxlili.
42. Xo'jaligi pudrat ta'mirlash va foydalanish davlat korxonasida xarajatlar hisobi va taxlili
43. Mas'uliyati cheklangan jamiyatida maxsulot ishlab chiqarish va sotish hisobi
44. Xususiy firmasida moliyaviy natijalari hisobi va auditi
45. Mas'uliyati cheklangan jamiyatida maxsulot ishlab chiqarish va sotish hisobi va auditi.
46. Mas'uliyati cheklangan jamiyatida byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar hisobi va auditi.
47. Mas'uliyati cheklangan jamiyatida tovar moddiy zaxaralar hisobi va taxlili.

III. Byudjet tashkilotlari bo'yicha (39 ta)

1. Moliya organlarida, g'aznachilik va uning xududiy bo'limlarida buxgalteriya hisobi .

2. G'azna ijrosi sharoitida davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari hisobi.
3. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti daromadlari va xarajatlari hisobi.
4. Byudjet ssudalari, o'zaro hisoblashuvlar hisobi.
5. Davlat byudjeti ijrosi natijalari hisobi va hisoboti.
6. Davlat maqsadli jamg'armalari byudjeti ijrosi natijalari hisobi va hisoboti.
7. Byudjet tashkilotlarida byudjet hisobini tashkil etishning uslubiy asoslari.
8. Byudjet tashkilotlarida byudjet va byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalari hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim etish tartibi.
9. Byudjet tashkilotlarida asosiy vositalar hisobi.
10. Byudjet tashkilotlarida nomoddiy aktivlar hisobi.
11. Byudjet tashkilotlarida tovar moddiy zahiralari hisobi.
12. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy aktivlar hisobi.
13. Byudjet tashkilotlarida debitor va kreditor qarzlari hisobi.
14. Byudjet tashkilotlarida mehnat va unga tenglashtirilgan to'lovlar hisobi.
15. Byudjet tashkilotlarida stipendiya to'lovlari, pensiya va nafaqalar bo'yicha to'lovlar hisobi.
16. Byudjet tashkilotlarida mehnat va unga tenglashtirilgan to'lovlarning to'lanishida plastik kartochkalardan foydalanish hisobi.
17. Byudjet tashkilotlarida soliq va majburiy ajratmalar hisobi.
18. Byudjet mablag'lari bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobi.
19. Byudjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar hisobi.
20. Byudjet tashkilotlarida yakuniy moliyaviy natijalar hisobi.
21. Byudjet tashkilotlarida moliyaviy hisobotlar, ularni tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish tartibi.
22. Byudjet tashkilotlarida xarajatlar smetasi ijrosi bo'yicha hisobotni tashkil etish masalalari.

- 23.Byudjet tashkilotlarida davlatning maqsadli fondlari bilan hisob kitoblar hisobi.
- 24.Byudjet tashkilotlarida pul mablag'lari hisobi.
- 25.Byudjet tashkilotlarida debitorlik va kreditorlik qarzlari hisobi.
- 26.Byudjet tashkilotlarida davlatning maqsadli fondlari bilan hisob kitoblar hisobi.
- 27.Byudjet tashkilotlarida mol mulkni va majburiyatlarni inventarizatsiyadan o'tkazish va uning natijalarini rasmiylashtirish.
- 28.Moliya bo'limida moliyaviy aktivlar hisobi va uni takomillashtirish yo'llari.
- 29.Moliya bo'limida asosiy vositalar hisobi va inventarizatsiya o'tkazish tartibi
- 30.G'aznachilik boshqarmasida tovar moddiy zaxiralar hisobi va inventarizatsiyadan o'tkazish tartibi.
- 31.Moliya bo'limida tovar moddiy zaxiralar hisobi va taxlili.
- 32.Moliya bo'limida tovar moddiy zaxiralar hisobi va uni inventarizatsiyasi
- 33.Moliya bo'limida byudjet va byudjetdan tashqari jamg'armalar bilan hisob-kitoblar hisobi
- 34.Moliya bo'limida xarajatlar hisobi
- 35.Moliya bo'limida daromadlar hisobi va uni nazorati
- 36.Moliya bo'limida ish haqi va majburiy ajratmalar hisobi.
- 37.Moliya bo'limida xarajatlar hisobi va taxlili
- 38.Umumta'lim maktablarda ish haqi hisobi va taxlili.
- 39.Davlat soliq inspeksiyasida xodimlarga mehnatga haq to'lash bo'yicha hisob-kitoblar hisobi.

IV.Tijorat banklar bo'yicha (59 ta)

- 1 Tijorat banklarda buxgalteriya hisobi va uning tamoyillari.
- 2 Tijorat banklarda analitik va sintetik hisobni yuritish
- 3 Tijorat banklarda bank hujjatlarini rasmiylashtirish va hujjatlar aylanishini

tashkil qilish.

- 4 Tijorat banklarda bankning ichki nazorati va uning tashkil qilinishi.
- 5 Tijorat banklarda banklararo hisob-kitoblar va ularning hisobi.
- 6 Tijorat banklarda bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish.
- 7 Tijorat banklarda depozit operatsiyalarining hisobi.
- 8 Tijorat banklarda naqd pulsiz hisob-kitoblarni tashkil qilish va ularning hisobi.
- 9 Tijorat banklarda kassa operatsiyalarining buxgalteriya hisobi.
- 10 Tijorat banklarda kredit operatsiyalari hisobi.
- 11 Tijorat banklarda foiz siyosati va hisobi.
- 12 Tijorat banklari tomonidan fermer xo'jaliklari va kichik biznes sub'ektlarini mikrokreditlash tartibi va hisobi.
- 13 Tijorat banklari tomonidan faktoring operatsiyalari hisobini yuritilishi va nazorati.
- 14 Tijorat banklari tomonidan lizing operatsiyalarini amalga oshirish va buxgalteriya hisobini yuritish tartibi.
- 15 Tijorat banklari tomonidan o'z aksiyalarini muomalaga chiqarish va ularning hisobi.
- 16 Tijorat banklari tomonidan chiqarilgan qarz qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar hisobi.
- 17 Bank daromad va xarajatlari hisobi.
- 18 Banklarda asosiy vositalar hisobi.
- 19 Banklarda nomoddiy aktivlar hisobi.
- 20 Banklarda kam baholi va tez eskiruvchan buyumlar hamda boshqa material zahiralar hisobi.
- 21 CHet el valyutasidagi operatsiyalarni hisobga olish.
- 22 Bank hisobotlari va ularni tuzish tartibi.
- 23 Banklarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida tashkil qilinishi.

